



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

4 (54) 2023

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
Т.А. АСКАРОВ
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
С.И. ИСМОИЛОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Б.Т. РАХИМОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х.ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com>

E: ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал

Научно-реферативный,

духовно-просветительский журнал

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

4 (54)

2023

апрель

Received: 20.03.2023, Accepted: 25.03.2023, Published: 15.04.2023.

UO'K 616.992.282:616.64-36-07-084

UROGENITAL KANDIDOZDA PAST CHASTOTALI ULTRATOVUSHLI KAVITATSIYA USULINING QO'LLANILISHI

Matsapoyev Sh.Sh. <https://orcid.org/0009-0000-2408-0613>

Raxmanova N.X. <https://orcid.org/0009-0007-9483-3319>

Matqurbonova Sh.B. <https://orcid.org/0009-0006-5270-8918>

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali O'zbekiston, Xorazm viloyati, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko'chasi 28-uy Tel: +998 (62) 224-84-84 E-mail: info@urgfiltma.uz

✓ *Rezyume*

Maqsad: Urogenital kandidoz aniqlangan ayollarni davolashda past chastotali ultratovush kavitatsiya usulining qo'llanilishi samaradorligini o'rganish.

Zamonaviy akusher-ginekologlar amaliyotida kandidoz muammosi hali ham eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Urogenital kandidoz qin va bachadon bo'yni shilliq qavatining yallig'lantirishi va vaginal muhit biotsenozini buzishi klinik jihatdan tasdiqlangan. Zamonaviy diagnostika texnologiyalari va urogenital kandidozni standart davolanishiga qaramay, hali ham retsidivlar ehtimoli yuqori. Natijada, urogenital tizimning surunkali yallig'lanish jarayoni ayolning reproduktiv salomatligiga va immunopatologik kasalliklar fonida yuzaga keladigan homiladorlik jarayoniga ham salbiy ta'sir qiladi.

Maqolada ayollarning reproduktiv tizimining kandidoz infeksiyalarini tashxislash, davolash va oldini olishning dolzarb masalalari muhokama qilinadi. Ginekologik amaliyotda urogenital kandidoz infeksiyasini davolashda ultratovush kavitatsiya usulini qo'llash imkoniyatlari va istiqbollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: urogenital kandidoz, retsidiv, mikroflora, ultratovushli kavitatsiya, infeksiya, antibiotik.

ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА НИЗКОЧАСТОТНОЙ УЛЬТРАЗВУКОВОЙ КАВИТАЦИИ ПРИ УРОГЕНИТАЛЬНОМ КАНДИДАЗЕ

Матсапоев Ш.Ш., Рахманова Н.Х., Матқурбонова Ш.Б.

Ташкентская медицинская академия Ургенчский филиал Узбекистан

✓ *Резюме*

Цель: изучить эффективность низкочастотной ультразвуковой кавитации в лечении женщин с диагнозом урогенитальный кандидоз.

Кандидоз до сих пор остается одной из наиболее актуальных проблем современной акушерско-гинекологической практики. Клинически доказано, что урогенитальный кандидоз вызывает воспаление слизистой оболочки влагалища и шейки матки и нарушает биоценоз вагинальной среды. Несмотря на современные диагностические технологии и стандартное лечение урогенитального кандидоза, все же остается высокая вероятность рецидива. В результате хронический воспалительный процесс мочеполовой системы негативно влияет на репродуктивное здоровье женщины и течение беременности, протекающее на фоне иммунопатологических заболеваний.

В статье рассматриваются актуальные вопросы диагностики, лечения и профилактики кандидозных инфекций женской репродуктивной системы. Освещены возможности и перспективы использования метода ультразвуковой кавитации в лечении урогенитальной кандидозной инфекции в гинекологической практике.

Ключевые слова: урогенитальный кандидоз, рецидив, микрофлора, ультразвуковая кавитация, инфекция, антибиотик.

APPLICATION OF LOW FREQUENCY ULTRASOUND CAVITATION METHOD IN UROGENITAL CANDIDIASIS

Matsapoyev Sh.Sh., Rakhmanova N.Kh., Matkurbonova Sh.B.

Tashkent Medical Academy Urganch branch Uzbekistan

✓ *Resume*

Purpose: to study the effectiveness of low-frequency ultrasound cavitation in the treatment of women diagnosed with urogenital candidiasis.

Candidiasis is still one of the most urgent problems in modern obstetrician-gynecological practice. Urogenital candidiasis is clinically proven to cause inflammation of the mucous membrane of the vagina and cervix and disrupt the biocenosis of the vaginal environment. Despite modern diagnostic technologies and standard treatment of urogenital candidiasis, there is still a high probability of recurrence. As a result, the chronic inflammatory process of the urogenital system negatively affects a woman's reproductive health and the pregnancy process that occurs against the background of immunopathological diseases.

The article discusses current issues of diagnosis, treatment and prevention of candidiasis infections of the female reproductive system. The possibilities and prospects of using the ultrasound cavitation method in the treatment of urogenital candidiasis infection in gynecological practice are highlighted.

Key words: Urogenital candidiasis, recurrence, microflora, ultrasonic cavitation, infection, antibiotic.

Dolzarbligi

Urogenital kandidozning asosiy belgilari tashqi jinsiy a'zolarida kuchli qichishish va achishish, disparuniyadir. Qichishish, doimiy bo'lib, uyqu buzilishi va ayolda psixologik noqulayliklarga olib keladi. Bunday bemorlarda vaginal ajralma ko'p bo'ladi. Tekshiruvda o'tkir yallig'lanishning quyidagi belgilari aniqlanadi: qin va perianal sohaning orqa komissurasi giperemiyasi, tashqi jinsiy a'zolar va qin devorlarining shishishi, vulvadagi teri va shilliq pardalardagi chiziqli yoriqlarga olib keladi. Tashqi jinsiy a'zolarida ko'pincha oq yoki sarg'ish-oq rangdagi "maydalangan" konsistensiyani ko'rish mumkin. Vaginal ajralma ko'p miqdorda, sut rangiga ega va "tvorogsimon" xususiyatga ega. Shu bilan birga, vaginal muhit pH (3,8-4,5). Surunkali urogenital kandidoz kasallikning kechishi ikki oydan ortiq davom etadi. Kasallik belgilari doimiy ravishda saqlanib turadi, davolanishdan keyin biroz kamayadi va yiliga 4 yoki undan ko'p marta takrorlanadi. Bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri surunkali takroriy urogenital kandidoz chastotasining oshishi hisoblanadi.

Organizmida takroriy genital kandidozning rivojlanishiga moyillik yaratuvchi bir qancha omillar ma'lum. Kasallik tez-tez uchrashiga va davolashdan keying retsidivlanishga olib keluvchi sabablar quyidagilar:

1. Endokrin kasalliklarda – (qalqonsimon bezning patologiyasi, nazoratsiz yoki yetarli darajada nazorat qilinmagan qand kasalligi) shilliq qavatida ko'p miqdorda glyukoza to'planadi va Candida zamburug'larining oziqlanishi uchun sharoit yaratiladi; bundan tashqari, bunday bemorlarda organizmning fagotsitar faolligi va mahalliy immuniteti pasayadi;
2. Keng spektrli antibiotiklarni buyurishda patogen va saprofit flora kamayadi, shartli patogen mikroorganizmlarning soni va virulentligi ortadi; 54,8% hollarda surunkali UGK bilan og'rigan ayollar kasallikning boshlanishini jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar uchun antibiotik terapiyasi bilan bog'laydilar;
3. Homiladorlik davrida: estrogen va progesteron darajasining oshishi tufayli epiteliositlarning yopishqoq xususiyatlarining oshishi qayd etiladi; giperestrogenemiya vaginal epiteliya hujayralarining ko'payishiga va ulardagi glikogen miqdorining ko'payishiga yordam beradi, uning parchalanishi paytida zamburug'lar uchun ozuqa muhiti glyukoza hosil bo'ladi; vaginal shilliq qavatida, yuzaki hujayralari keratinizatsiyasining pasayishi zamburug'lar shilliq qavatning chuqur qatlamlariga kirib borishiga imkon beradi, bu esa patologik jarayonning uzoq muddatli davom etishiga olib keladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda UKning uchrash chastotasi keskin ko'tarilgan. Vulva va vaginani yuqumli kasalliklari tarkibida ushbu kasallikning uchrash chastotasi turli mualliflar ma'lumotlariga

qaraganda, 26% dan 40-45% gacha oshgan. Ayollarning turli yosh guruhlarida UKning tarqalishi bir xilda emas. Menarxe boshlanishidan oldin kasallik kam uchraydi. 20 yoshdan keyin ayollarda kasallikning keskin o'sishini kuzatish mumkin, uning maksimal kasallanish darajasi ayollarning reproduktiv davriga to'g'ri keladi.

Kasallik ayollarning reproduktiv tizimiga sezilarli darajada ta'sir qiladi va ayolning hayotida bir qancha psixologik noqulayliklarga olib keladi. Bundan tashqari, UKning uzoq kechishi, tez-tez retsidivlanishi ayollarda bepustlikka ham sababi bo'lishi mumkin.

UK homilador ayollarda homiladorlikni to'xtab qolish xavfini, o'z-o'zidan abortni, erta tug'ish xavfini, xorioamnionitni, homila old suvlarining vaqtidan oldin ketish ehtimolini yanada oshiradi.

Tadqiqot maqsadi: Urogenital kandidoz aniqlangan ayollarni davolashda past chastotali ultratovush kavitatsiya usulining qo'llanilishi samaradorligini o'rganish.


Material va metodlar

Urogenital kandidoz tashxisi bilan murojaat qilgan reproduktiv yoshdagi 39 ta ayol tekshirildi. Bemor ayollarda:

- Anamnezi(shikoyatlari,morbi,vitea);
- klinik tekshiruv;
- laborator (umumiy va bioximik qon tahlili, qin surtmasining kultural tahlili);
- ultratovush kavitatsiyasi usulini qo'llash va natijalarni tahlil qilish.

Natija va tahlillar

3 oy davomida 39 nafar ayol urogenital kandidoz bilan murojaat qildi va davolash 2 yo'nalishda olib borildi. Natija tahlil qilinganda, kandidoz aniqlangan 70% da (n=26) turmushga chiqqan va 30%i (n=13) turmushga chiqmagan ayollarda anamnezi bo'yicha kasallik kelib chiqish sabablariga ko'ra endogen faktorlar orqali 53,8% (n=21) va ekzogen faktorlar orqali 47,7% (n=18) ayol zararlangan. Ba'zida kandidoz va bakterial infeksiya qo'shilib kelgan holatlari 33,3%ida (n=13) aniqlandi.



Davolash 2 yo'nalishda olib borildi (n=39):

1. 48,7 % (n= 19) bemorga standart davu va prebiotiklar berildi.
2. 51,2% (n=20) bemorga standart davu va ultratovush kavitatsiya orqali mahalliy dori vositalari qo'llanildi.

Xulosa

Ultratovush kavitatsiya yosh ayollarda reproduktiv funktsiyani saqlab, davolash samaradorligini oshiradi. Ultratovush kavitatsiya antiseptik prepatartning ta'sirlangan hududda bir tekis taqsimlanishini va sezilarli invaziya bilan yetarli chuqurlikda tarqalishini ta'minlash, chuqur sanatsiya ishlarini olib borish imkonini beradi, epitelizatsiya vaqtini 1,5 barobarga qisqartiradi, epitelizatsiya fazalarini ham qisqartiradi. Chandiq to'qima hosil bo'lmaydi va jinsiy a'zolari anatomik va funktsional butunligini saqlab qoladi.

To'g'ri tashkil etilgan klinik va etiologik tashxis - terapevtik aralashuvning miqdori va darajasini aniqlashga va aniq yo'naltirilgan terapiyani amalga oshirish imkonini beradi. Standart davolsh usuli va

ultratovushli kavitatsiya usulida davolangan bemorlarda kasallikning qaytalanishi 6-oy ichida kuzatilmadi. Faqat standart davo va prebiotik olgan ayollar 3 oy ichida 57,9% bemorda retsivid kuzatildi. Urogenital kandidozning standart davosiga qo'shimcha ultratovush kavitatsiya mahalliy dori vositalari bilan qo'llanilgan o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Воронова О.А., Зильберг Н.В., Кузнецова Ю.Н., Евстигнеева Н. П. Алгоритм выбора терапии больных урогенитальным кандидозом. // *Успехи современного естествознания*. 2015;2:21-25.
2. Кудряшова И.Б., Рекстина В.В. Диагностика инвазивных кандидозов: научные исследования и практическое применение. // *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*. 2017;12(1):8-14.
3. Свердлов Е.С. Заболевания шейки матки: алгоритмы диагностики и технологии лечения. / Монография. – Иркутск, 2010.
4. Абдиева Д.Х., Валиева М.С., Дырда Н.И. Опыт применения препарата "эксагин" в терапии урогенитального кандидоза // *Успехи медицинской микологии*. 2017;17:112-114.
5. Алиева П.М., Магомедова А.М., Мугутдинова А.С. Влияние фунгицидных препаратов на микрофлору кишечника у больных урогенитальным кандидозом // *Вопросы устойчивого развития общества*. 2020;4(1):123-130.
6. Лямин А.В., Боткин Е.А., Жестков А.В. Проблемы в медицине, связанные с бактериальными плёнками. // *Клиническая микробиология и антимикробная химиотерапия*. 2012;(4):268-275.
7. Шендеров Б. А. Метабиотики - новая технология профилактики заболеваний, связанных с микробиологическим дисбалансом человека. // *Вестник восстановительной медицины*. 2017;80(4):40-49.
8. Рахманова N.X. Хоразм вилоятида чақалоқлар вульво-вагинитининг кўп учровчи сабаблари ва вульва синехияси билан кечиши. // "Тиббиётнинг долзарб муаммолари" 2015;124-125.
9. Каттаходжаева М.Х., Рахманова N.X. Контрацепция воситаларининг аёл урогенитал тракти микрофлорасига таъсири солиштирма ўрганиш. // «Ўзбекистон тиббиёти» журнали. Тошкент. 2019;5.
10. Рахманова N.X., Матризаева Г.Д. Турли контрацептив воситаларидан фойдаланувчи репродуктив ёшдаги аёлларда генитал йўллар биоценозининг полизмеризация реакцияси усулидаги диагностикаси. // «Тошкент тиббиёт академияси ахборотномаси» журнали – 2020;4:158-161.
11. Матсапоев Ш.Ш., Рахманова N.X. Candida турдаги замбруғларнинг инсон организмида учраши ва унинг бошқа микроорганизмлар ўсишига таъсири. // "Морфологиянинг Covid-19 пандемияси билан боғлиқ муаммолари" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси 2021;263.
12. Кадырова А.А., Каттаходжаева М.Х. К вопросу о многоводии у женщин, страдающих сахарным диабетом. // *Экстрагенитальная патология у беременных и некоторые вопросы профилактики перинатальной смертности*. Сборник статей, Ташкент, 1979;6-8.

Qabul qilingan sana 20.03.2023